

G'alla ekish mavsumi uchun mineral o'g'itlar ta'minoti o'rganildi

// 24.09.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/g-alla-ekish-mavsumi-uchun-mineral-o-g-itlar-ta-minoti-o-rga>



Shu kunlarda hududlarda "O'zkimyosanoat" AJ vakillari 2027-yilgi g'alla ekish mavsumi uchun mineral o'g'itlarga bo'lgan talabni o'z vaqtida ta'minlash, mahsulotlarni yetkazib berish, hududlardagi vakolatli omborlarda saqlash hamda fermerlarga belgilangan muddatlarda yetkazilish holatini o'rganmoqda.



Bu kabi o'rganishlarning navbatdagi manzili Sirdaryo va Jizzax viloyatlari bo'ldi.

O'rganishlar yakuni bo'yicha mazkur hududlarda mas'ullar ishtirokida yig'ilishlar o'tkazildi. Unda g'alla ekish mavsumida mineral o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojni o'z vaqtida qoplash, ularni hududlarga yetkazib berish va fermer xo'jaliklariga belgilangan muddatlarda tarqatish masalalari muhokama qilindi.



Yig'ilishlar yakunida har ikki viloyatda g'alla ekish mavsumini mineral o'g'itlar bilan o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan kelishib olindi. Tadbirlarda Sirdaryo viloyati hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, Jizzax viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i hamda "Ammofos-Maxam" AJ vakillari ishtirok etdi.

